

Romitan tuman 1-umumiy  
o'rta ta'lim maktab  
gulchilik to'garagi rahbari  
Jo'rayeva Dilnozaning  
*“Mangu hilpira o'zbek bayrog'i”*  
mavzusida o'tkazgan tadbir

# Ishlanmasi

2015-2016-o'quv yili

***“Mangu hilpira o‘zbek bayrog‘i” ochiq ma‘naviyat soati.***

**1 - O‘quvchi:**

Ey jahon donolari, donosi sizga assalom

Ey zamon zebolari, zebosi sizga salom

Davramiz siz aziz do‘stlar

Tilimizda jonkuyar aziz ustozlar

**2 - O‘quvchi:**

Salom so‘zim boshlayman

Cheksiz ehtirom bilan

Hurmat hissi yog‘rilgan

She‘riy bir kalom bilan

**3 - O‘quvchi:**

Assalomu aleykum hurmatli ustozlar va aziz o‘quvchilar. Mana bugun biz to‘garak o‘quvchilari ***“Mangu hilpira o‘zbek bayrog‘i”*** mavzusida ochiq ma‘naviyat soati tayyorlab kelganmiz. Ma‘naviyat soatini ochiq deb e‘lon qilamiz.

**Yangi mavzu bayoni:**

**1 - o'quvchi: Chetdan kelgan mehmon o'zbek yerida**

O'z bayrog'in ko'rib  
Birdan dong qotdi  
Ko'zlari chaqnadi  
Qaddin rostlandi  
Go'yo uning uchun  
Yangi tong ochdi  
"Salom, tug'im"- dedi  
Uzoq charchoqdan  
Kelib qolgan kabi  
bir-bir  
Birdan hushiga  
Pichirlab nimadir  
O'qida dilda  
Quyosh chaqnab turgan  
Kabi boshida

**2 - o'quvchi:**

So'ng dedi ishlarim  
Xayrli bo'lar  
Omon bo'l, o'zbekim  
Yasha, beqayg'u  
Uning quvonchlari  
Qalbimga quchib,  
Tanamda uyg'ondi  
Nurafshon tuyg'u  
Ko'zlarim oldidan o'tdilar

### **3 - o'quvchi:**

Sog'insak boqamiz  
Moviy rangini  
Yulduzlar eslatar  
O'z osmonimizni  
Oy ham yangidan  
Bayroqqa payvanddir  
Bizning jonimiz  
Bunda hindu arab  
Hatto bor hakas  
O'zbekiston desak  
Qilishar havas  
Farangu olmondan  
Do'stlarim talay  
Mening bo'ylarim ham  
Undan kam emas

### **4 - o'quvchi:**

Bilaman dunyoda  
Vatanlar ko'pdir.  
Har birin o'z yori  
Border o'z nomi.  
Jo'marddan deganing  
Armoni yo'qdir,  
Bayroqdan boshlansa  
Vatan salomi  
Balki bu so'zlarim  
Sodda, odmiroq  
E'tibor bermaymiz  
Ba'zan o'zimiz  
Bayrog'imiz doim  
Bizdan jidinroq  
Dunyoga tanitar  
Yorug' yuzimiz

### **5 - o'quvchi:**

Bayroq biror firqa, tashkilot, ummat, millat va uning davlatining belgisidir. Bularning orasida millat uchun eng muhini va uning mustaqilligini va xalqaro hurmatga egaligini bildiruvchi bayroq – davlat bayrog'idir.

### **6 - o'quvchi:**

Davlat bayrog'i muqaddas hisoblanadi va uni e'zozlab asraladi. Uni behurmat qilishga yo'l qo'yilmaydi, chunki davlat bayrog'ini behurmat qilish, shu davlatning hamma aholisining behurmat qilish bilan tengdir.

### **7 - o'quvchi:**

Bayroq odatda gazmol pardasidan iborat bo'lib, bo'yi enidan uzunroq bo'ladi va enining bir tarafı bir dastaga biriktiladi. Bayroqlar bir – biridan rangi va naqshlari bilan farq qiladi. Bizning ajdodimiz juda qadim zamonlardan boshlab o'zlarining bayroqlariga ega bo'lganlar.

***Sahna ko'rinishi***

**1 - o'quvchi:**

- Bolajonlar, hozir sizga bayrog'imizdagi ranglar oy va yulduzlar o'zlari haqida so'zlab berishadi. Marhamat, diqqat qiling, qulog'ingizga quyub oling.

**2 - o'quvchi:**

- Men moviy rang bo'laman – yurt osmonining bir parchasi. Bu olamda tinchlik bo'lsin deganimdir. Yana men tip-tiniq suvgayam o'xshayman. Axir – hayot oqim daryo-da. Tilagim uning bag'ri hamisha shaffof bo'lsin. Hech qachon loyqalanmasin.

**3 - o'quvchi:**

- Men qizil rang durman bamisoli tomirlarda oqqan toza qondurman. Hamma – hammani vatan bayrog'i ostida yashashga, mehnat qilishga, kurashishga chaqiraman.

**4 - o'quvchi:**

- Men oq rang bo'laman. O'zim ham oq, ko'nglim ham oq qilar ishlarim esa pok.shuning uchun ham maqtovim ko'proq, uzoq-uzoqlarni ko'rayin deb ega "oq yo'l" tilayin deb bayroqdan o'rin oldim va undan mangu qoldim.

**5 - o'quvchi:**

- Men yashil rangdurman. U nima degani? Yashillik yasharish – yashnatish, ertangi kunga ishonish degani. Nonu – nasiba, sof ob – havo, sog' – omonlik degani. Orzularim buyuk, yurt hamisha yashnab tursin. Dul – dul otdek kishnab tursin.

**6 - o'quvchi:**

- Oymomoman oymomo. Ertaklarga boy momo. Ko'rishim uch yoki to'rt kunlikdir. Niyatlarim odamlarga to'kinlikdir.

O'y so'rsalar o'ylariga sirdoshdirman.

Yo'l yursalar yonlarida yo'ldoshdurman.

Tinch tunlarni tinch kunlarga ulayman

O'zbekiston sharafini olamlarga so'zlayman.

**7 - o'quvchi:**

- O'n ikki yulduz – o'z ikki oymiz. Jamlasangiz bir yilga joymiz. Kim qandoq yashadi, yaxshi, yomon? Hech ikkilanmay baholaymiz. Yana biz o'n ikki yulduz o'z ikki burjmiz. Oyu quyosh bilan harakatdamiz. Fasllar o'zgaradi. Yangi kun, yangi odamlar tug'iladi. Barida ishtirokimiz bor. Biz aks etgan yurt bayrog'i ham, o'zi ham dunyo turguncha tursin.

**1 - o'quvchi:**

Ko'zlarga nur bag'ishlar

Respublikam bayrog'i

Osmoni keng musaffo

Vatan chaman har yog'i

Respublikam bayrog'i

**2 - o'quvchi:**

Yo'ldoshdir yo'limiz

Parpirab qo'limizda

Mehri dillarda yashar

Surati ko'nglimizda

Respublikam bayrog'i

**3 - o'quvchi:**

Porlasa turfa rangda  
Quyosh deysiz qaranga  
Zafarlarga chorlovchi  
Respublikam bayrog'i

**4 - o'quvchi:**

Tinchlik Mustaqillik bu  
Bundan orzular kular  
Kelajak yorqinlik bu  
Respublikam bayrog'i

**5 - o'quvchi:**

Bu shonli O'zbekiston  
Baxtimiz bahorimiz  
Nomi tillarda doston  
Sharaf iftazorimiz  
Respublikam bayrog'i

**6 - o'quvchi:**

Havorang oq va yashil  
Bordir qizil belbog'i  
Shuning uchun chiroyli  
O'zbekiston bayrog'i

**7 - o'quvchi:**

O'n ikki baxt yulduzi  
O'ziga xo'p yarashar  
Unga dunyo xalqlari  
Havas bilan qarashar

**8 - o'quvchi:**

Mustaqil yurt deb atar  
Yer yuzining har yog'i  
Bizga juda mo'tabar  
O'zbekiston bayrog'i

***Qo'shiq:***

Hilpirar yurtimiz bayrog'i  
Faxrimiz, davrimiz ardog'i  
U edi dillarning armoni  
Eltardi yillaning karvoni  
N – T  
Bu bayroq ishonchli qo'llarda  
Manguga yilpirar yo'llarda  
Kunsayin chulg'anib nurlarga  
Chorlaydi eng yorug' kunlarga

***Tez aytish.***

Bahodir bayroqni botirga berdimi  
Botir bayroqni bahodirga berdimi

***Topishmoq.***

U baxtimiz timsoli, quyosh kabi porlaydi  
Xalqimizni doimo, zafarlarga chorlaydi  
Shu bilan bugungi mavzuli davramiz o'z nihoyasiga yetdi.